



SUG'ORILADIGAN YERLARDA NO'XAT NAVLARINING O'SISHI,  
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGI  
Valijonova Lobar Soxobjon qizi

*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi*

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining muhim vazifalaridan biri, aholini oziq-ovqat maxsulotlarga bo'lgan talabini to'liq qondirishdan iboratdir. Bu maqsadga erishishda don va dukkakli-don ekinlarini yetishtirish, ularni xilma-xilligi, xosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash jiddiy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlari:** No'xat, sug'oriladigan yerlar, murakkab, patsimon, oqsil, moy, vitaminlar, lalmikor

**No'xat – dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simlik turkumi; dukkakli don ekini. Vatani Osiyo.** Poyasi o'tsimon, tik o'sadi, dag'al, qovurg'ali, sershox, tukli, balandligi 30-70 sm. Bargi murakkab, patsimon. Guli ikki jinsli, kapalaksimon, mayda. Mevasi dukkak, dukkagida 1-2 ta, goh 3 ta don bo'ladi. Don rangi oq, pushti, to'q-sariq, issiqsevar va yorug'sevar, bahorgi ekin. Boshqa dukkakli ekinlarga nisbatan qurg'oqchilik va sho'rga chidamli, urug'i 2-5°C haroratda unib chiqadi, past haroratda sekin o'sadi. Maysasi bahorgi -6-8°C gacha qorasovuqlarga chidaydi. Namlik me'yordan ortiq bo'lsa kasallanadi, shona va guli to'kiladi. O'zidan changlanadi. O'suv davri 70-190 kun. Don tarkibida 19-33% oqsil, 4-7% moy, 0,2-4,0% kul, 48-61% azotsiz ekstrativ moddalar, 2-12% klechatka, vitaminlar hamda aminokislotalar mavjud. Bir mavsumda bir gektar yerda no'xat ildizlari 50-70 kg sof modda hisobida azot to'playdi. Keng qatorlab (qator orasi 45-60 sm) yoki yoppasiga qatorlab (qator orasi 15 sm), ba'zan sepma usulida 5-10 sm chuqurlikda ekiladi. O'zbekistonda aksariyat lalmi yerdarda ekiladi. Gullash davrida suvni kam me'yorda berish yaxshi natija beradi, to'liq pishganda guli to'kiladi, dukkagi deyarli chatnamaydi, hosili don kombaynlarida yig'ib olinadi.

No'xat urug'lari energiya va o'simlik oqsilining qimmatli manbai bo'lib, vitaminlar, oqsillar, minerallarga boy. Aminokislotalar tarkibi bo'yicha, no'xat urug'idan olingan protein eng muvozanatlari hisoblanadi va uglevodlar miqdori bo'yicha soya urug,,iga qaraganda bir necha baravar yuqori.

No'xat urug'i tarkibida oqsil 18-30%, uglevod 48-56%, yog' 4-8% mavjud. Urug'ida o'rtacha 0,4 mg tiamin, 0,3 mg riboflavin, 2,5 mg niatsin va 2,2 mg dan 20 mg gacha C vitamini bor. No'xat barglarida oksalin, limon va olma kislotalari mavjud.

Bugungi kunda no'xat ekini maydoni dunyo bo'yicha 14573 ming gektar bo'lib, 2007 yilga nisbatan 3,3% kengaygan[12]. No'xat yetishtiruvchi asosiy davlatlar – Hindiston, Avstraliya, Pokiston, Argentina, Afrika davlatlari va Meksika hisoblanadi,





no'xat ishlab chiqarish bo'yicha Hindiston (10984 ming/ t) yetakchilik qilib, uning ulushi 73 foizga to'g'ri keladi. Ikkinci o'rinni Avstraliya (661 ming/t) va uchinchi o'rinni Pokiston (601 ming/t) egallaydi. Hozirgi vaqtida no'xat hosildorligi 10 s/ga ni tashkil etib, 2007 yilga nisbatan 2,2 foizga oshgan.

Dunyo dehqonchiligidagi no'xat 10,2 mln ga ekilgan, shundan 8 mln. getktari Hindistonda. Ekilish maydoni bo'yicha dukkanakli don ekinlari orasida uchinchi o'rinni egallaydi. O'zbekistonda no'xat lalmikor va suvli yerlarda 4-5 ming ga maydonga ekiladi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining muhim vazifalaridan biri, aholini oziq-ovqat maxsulotlarga bo'lgan talabini to'liq qondirishdan iboratdir. Bu maqsadga erishishda don va dukkanakli-don ekinlarini yetishtirish, ularni xilma-xilligi, xosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash jiddiy ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda takrorlanayotgan suv tanqisligi, oziq-ovqat maxsulotlariga jaxon bozorida narx navoning muttasil oshib borayotgani, axolining oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabini yanada to'liqroq qondirish, ayniqla oqsil va moy tanqisligini bartaraf qilish, respublikada oziq-ovqat ekinlari maxsulotlarini yetishtirish xajmlarini yanada oshirish xamda ularning turlarini ko'paytirish pirovardnatijada qishloq axolisi daromadlari va turmush darajasini yuksaltirishni respublika hukumati qishloq xo'jaligiga aloqador bo'lgan olimlarni oldidagi dolzarb masala qilib qo'ymoqda.

O'simliklarda shu jumladan no'xat o'simligida hosildorlikni oshirishda o'simliklardagi fiziologik-biokimiyoviy jarayonlarni chuqur o'rganish talab etiladi. O'simliklarning o'sish va rivojlanishi ko'proq ularning fiziologik-biokimiyoviy xususiyatlar bilan bog'liqidir.





**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S. B Mustasnov, & Z. S. Mustanova (2023). EKISH SXEMALARINING NO'XAT HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 670-673.
2. Мустанов, С., & Умурзакова, У. (2019). Влияние схемы посадки на образование генеративных органов нута в условиях Узбекистана. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 174-177).
3. Nurmanova, I., & Mahammadiyev, J. (2023). APPLICATION OF MICROENCAPSULATION TECHNOLOGY IN THE FIELD OF TEXTILES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 712-715.
4. Musaxon Yoqubov, Jasur Mahammadiyev, & Aziza Eshonqulova (2023). SABZI VA OLMADAN TAYYORLANGAN MAHSULOTLARNING TARKIBINI O'RGANISH. Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 872-876.
5. O'G'Li, M. N. J., & Mahammadiyev, J. N. O. G. L. (2022). QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASHNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 485-488.
6. Tashpulatov, Y. S., Nurniyozov, A. A., Kabulova, F. D., Umurzakova, Z. I., & Dustov, B. S. (2020). Taxonomic Analysis of the Hydrophilic Flora of the Samarkand Region (Uzbekistan).
7. Shernazarov, S. S., & Tashpulatov, Y. S. (2020). Species Composition of Algae in the Food Tract of Common Silver Carp (*Hypophtalmichthys molitrix* vab.) in Growing Conditions.
8. Mustanov, S. B., Mustanova, Z. S., & AB, H. (2022, June). THE IMPORTANCE OF WATERING PEAS SEEDS. In *Archive of Conferences* (pp. 196-198).
9. Мустанов С. Значение стручковых культур в обогащении почвы биологическим азотом. Журнал "Сельское хозяйство Узбекистана". Ташкент. 2013;29.
10. Mustanov, S., & Mustanova, Z. (2023). SUG 'ORILADIGAN YERLARDA NO 'XATNINING UMID NAVINI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 148-150.
11. N. F. Boboqandov (2023). DOMINANT O'SIMLIK TURLARIDA TURLI FASLLARDA VA TURLI YAYLOV INTENSIVLIGIDA PROEKTIV



QOPLAM KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHI (JANUBIY QIZILQUM). Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 877-882.

12. N. F. Boboqandov, & Z. B. Nomozova (2023). LEONTICE TURKUM TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 679-683.

13. B. Н. Рахмонов (2023). МАИШИЙ ВА САНОАТ ОКОВА СУВЛАРИНИ БИОЛОГИК ТОЗАЛАШДА КАРОЛИНА АЗОЛЛАСИ (AZOLLA CAROLINIANA WILLD.) ВА КИЧИК РЯСКА (LEMNA MINOR L.) ЎСИМЛИКЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 897-900.

14. Mahammadiyev, J. N., Raxmonov, V. N., Amonov, B. S., Abduqahhorov, J. M., & Maxammediyev, M. N. (2021, December). MICROCAPSULATION COATING MATERIALS AND ITS APPLICATION IN FOOD TECHNOLOGY. In *Archive of Conferences* (pp. 58-60).

15. Isomov, E. (2023). ARTISHOK "CYNARA SCOLYMUS L." NAVLARNING ONTOGENEZI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(5), 5-7.

16. Eldor Erxonovich Isomov (2023). TURLI SUG'ORISH SHAROITLARIDA ARTISHOK (CYNARA SCOLYMUS L.) NAVLARI YER USTKI ORGANLARNING O'SISH VA RIVOJLANISH FAZALARI. Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 569-576.

17. Остонақулов, Т. Э., Тилавов, Х. М., & Махмудов, Р. З. (2021). ТУРЛИ ЎТИЛЛАР ШАРОИТЛАРИДА ҚОВУН ЁЗГИ НАВЛАРИНИ ЎСТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ. *Инновацион технологиилар*, (3 (43)), 65-67.

18. Djumayeva, G. R. (2022). ARTISHOK "CYNARA SCOLYMUS L." NING ONTOGENEZI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 207-210.

19. Tilavov, X. M., Mixliyev, T. R., & Devletshayeva, E. S. (2022). DON EKINLARINI SAQLASHDA TOZALASH VA SARALASH MASHINALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 469-474.

